

KIBR VA TAKABBURLIKNING INSON HAYOTIGA TA'SIRI**Tursunova Sarvinoz Nasriddinovna**Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari

Universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada kibr va takabburlikning inson hayotiga salbiy ta'siri yoritiladi. Kibr va takabburlik insonning shaxsiy hayoti, ijtimoiy munosabatlari va ruhiy holatiga qanday zarar yetkazishi haqida tahlil qilinadi. Shuningdek, bu illatlarning inson kamolotiga to'sqinlik qilishi va jamiyatdagi salbiy oqibatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Alloh, Qur'on, kibr, takabburlik, iymon, hadis, oyat, kitob, kamolot.

Kibr va takabburlik insoniyat tarixida hamisha katta muammolardan biri bo'lib kelgan. Bu illatlar insonning shaxsiy hayotiga, ijtimoiy munosabatlariga va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab diniy va falsafiy ta'limotlar kibr va takabburlikni inson kamoloti yo'lidagi eng katta to'siqlardan biri deb biladi. Ma'lumki, kibr qalb kasalliklarining eng yomonidir. Qalbini kibr illati egallagan banda Allohdan uzoqlashadi, U Zot rahmatidan mahrum bo'ladi. Ustiga-ustak bunday kishi bora-bora odamlarga ham yomon ko'rinadi. Arab tilida "kibr" deyilganda, o'zini boshqalardan katta tutish, o'ziga bino qo'yish tushuniladi. Kibrli, dimog'dor kishi "men atrofdagilardan ustunman, boshqalardan ko'ra hurmat-e'tiborga loyiqman", deb hisoblaydi. U buni ochiq aytmasa-da, qilayotgan ishlari va o'zini tutishidan bilinib turadi.

Kibr — haqni inkor etish va odamlarni tahqirlash.

[Abu muslim rivoyati]

Yuqoridagi rivoyatda kelgan “kibr”dan murod nima ekanligi borasida ulamolar bir necha fikrlarni aytishgan. Jumladan, Xattobiy ushbu rivoyatni ikki xil ta’vil qilgan:

1. *Kim iymondan kibr qilsa va shu holatda vafot etsa, aslo jannatga kirmaydi.*
2. *Banda jannatga kirayotganda uning qalbida kibr illati bo‘lmaydi.*

Shunga ko‘ra, mutakabbir odam Islom ummatiga mansub bo‘lsa, qiyomat kuni gunohiga yarasha jazolanib, poklangach, Allohga bo‘lgan iymoni sharofatidan boshqalardan keyin jannatga kiradi. Kibr qilgani uchun do‘zaxda qanday azoblar borligini hech kim tasavvur qila olmaydi. Bunday og‘ir holatga tushmaslik uchun kamtar bo‘lish kerak. Kibr illati hayotda barcha soha odamlari orasida ko‘zga tashlanadi. Ba’zilar o‘zining ilmi bilan mag‘rurlanib, o‘zgani mensimay, unga quloq solmaydi, maslahatini inkor etadi. Bunday banda o‘zining kamchiliklarini ko‘rmaydi. Uning fikricha, u hamma narsani biladi. Boshqalar boylikka erishgan sari kibrli bo‘lib, dimog‘dorlik qiladi. Ba’zilar mansabga erishsa, odamlarga hukmdorlardek muomala qiladi. Yana birlar o‘zining uddaburonligi, aqli, tadbirkorligi yoki go‘zalligi bilan mag‘rurlanadi.

"Alloh uchun kamsuqum bo‘lgan kishini Alloh darajasini yuksaltiradi."

[Kitob al-Birr va al-adab,2588-hadis]

Bu hadislardan ham ko‘rinib turibdiki, kamtarlik insonning ruhiy va ijtimoiy hayotida baraka keltiradi, kibr esa halokatga olib boradi. Kibr va takabburlik inson hayotiga juda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu illatlar insonni yolg‘izlikka, ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga va ruhiy beqarorlikka olib keladi. Har bir inson o‘zini takabburlikdan xoli qilib, kamtarlikni hayot tarziga aylantirishi kerak. Zero, kamtarlik insonning haqiqiy qadr-qimmatini oshiradi va unga jamiyatda hurmat-e’tibor olib keladi. Shuni eslatib o‘tish joizki, izzattalablik, manmansirash, kekkayish, birovlarining ishini yerga urish, kishilarni mensimaslik, ularni tahqirlash, oyoq uchida ko‘rsatish kabi illatlar mutakabbir kishilarga xos bo‘lgan asosiy belgilar sanaladi.

"Yer yuzida kibr-havo bilan yurma! Chunki sen yerni yora olmaysan va bo'y jihatdan tog'larga yeta olmaysan."

(Qur'oni Karim, Isro surasi, 37-oyat, 293-bet)

Aslida, ilm, aql, boylik, mansab, husn — barchasi Alloh bergan ne'matlardir. Bu ne'matlar shukrini, haqqini kibru havo bilan emas, balki kamtarinlik bilan ado etish lozim. Bularni Alloh berganini unutmaslik kerak. Kibrning aksi bo'lgan kamtarlik barcha go'zal xulqlarning asosidir. Kamtar inson Allohga eng itoatkor bandadir. Qalbi pok va yumshoq bo'ladi. U haqiqatni darrov qabul qiladi. Qaysi yoshda yoki maqomda bo'lishidan qat'i nazar, kim haqiqat gapirsa, uni darrov tan oladi. Ammo mutakabbir odam haqiqatni tushunib yetishga qiynaladi. Uning yuragi qattiq bo'lgani bois, ko'pincha adashadi. U faqat o'zidan yuqori bo'lgan odamlarga ergashishi mumkin, xolos. Demak, kibr — bandani jannatga kirishdan to'suvchi illatdir. Allohni sevuvchi kishi bu illatdan uzoq yurishi, qalbida kibr sezilsa, darrov undan voz kechib, kamtar va mutavozi' bo'lishga intilishi lozim. Shunda u Alloh suygan bandalar qatoriga kiradi.

"Allohning huzurida eng ulug'ingiz – taqvodorrog'ingizdir."

" (Qur'oni Karim, Hujorot surasi, 13-oyat 517- bet)

Kibr insonni hayotda ham, oxiratda ham yo'qotishlarga olib keladigan illatdir. Zer, insonning haqiqiy qadri uning taqvosi, kamtarligi va axloqi bilan o'lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1. Qur'oni Karim / Tarjimon: Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.***
- 2. Ming bir hadis / Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 320 b.***

3. *Hadis va hayot. 1-jild: Iymon / Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2005.*
4. *Ruhiy tarbiya / Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2011.*
5. *Ihyo ulumid-din / Imom al-G‘azzoliy. – Qohira: Dar al-Kutub al-Islomiyah, 2006.*
6. *Axloq asoslari / Z. Abdullayev. – Toshkent: Ma’naviyat, 2014.*
7. *Islom axloqi va jamiyat / D. Sultonov. – Samarqand: “Sharq”, 2012.*